



YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA LIDERLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

J.A.Yo'ldoshev

(ORCID 0009-0001-6031-6141)

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko'chasi 1-uy, Tashkent 100149

O'zbekiston (yoldoshevjavlon37@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14882737>

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi kunda o'quvchilarda liderlikning rivojlanishining psixologik psixologik turlari va ularning xususiyatlari. O'quvchilardagi liderlikni rivojlantirishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari hamda muammolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: liderlik, o'quvchilarda liderlik xususiyatlari, rasmiy va norasmiy lider, shaxs, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik portret.

Kirish

Bizga ma'lumki, har qanday guruh, tashkilot, jamoada, bo'linmada tan olingan obro'-e'tiborga ega bo'lgan shaxs mavjud va u mazkur tashkilotning faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazadi, bu o'zini boshqaruv harakatlari sifatida namoyon qiladi, shuningdek, Amir Temurning "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir", degan fikri ham tasdiqlaydi va bugungi kunda biz bunday shaxslarni liderlar deb ataymiz.

Biz o'rganmoqchi bo'lgan muammo ham lider shaxsi haqida, uning ijtimoiy guruhga ta'siri haqida qandaydir tasavvurlarni shakllantirishga va, eng asosiysi, insonni lider qila oladigan u yoki bu xususiyatlar to'plamini aniqlashga qaratilgan. Shu orqali bu xususiyat larning nasliy yoki yo'qligi va shunga bog'liq holda (agar ular korrektirovka qilinadigan bo'lsa), bu xususiyatlarni boshqa insonda shakllantirish mumkinligini aniqlashga harakat qilamiz. Bunda turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan nazariyalarni ko'rib chiqqan holda tahlil qilishga, qanday xususiyatlar liderda jamlanganligi va ulardan qaysilari yuqori o'rin tutishini aniqlashga va shu bilan birga, shaxsda liderlik xususiyatini shakllantirishga xizmat qiladigan dastur va treninglarni o'rganib chiqishga e'tibor qaratiladi.

Fikrimizcha, samarali faoliyat olib boruvchi sinf rahbari o'z sinf jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir o'quvchi zarur vaziyatda o'z imkoniyatini ishgasolish orqali topshiriqlarni bajarishda qatnashishi va ushbu jarayonda ishtirok etayotganini his qila olishi zarur. Buning uchun jamoa, har qanday vazifa, topshiriqlarni hal etishda chuqur mas'uliyat his etuvchi va o'ziga ishongan o'quvchilarga ega bo'lishi lozim. Bolaning jamoaviy munosabatlarga kirishuvi o'rtoqlari bilan shaxslararo munosa- batlar tizimida amalga oshadi. Bolaning atrofidagi jamoaviy munosabatlarga kirishuvchi odamlar: uning ota-onasi, aka-opasi va tarbiya maskanidagi o'rtoqlari boshqa a'zolari. Bolaning kelajakda shaxs sifatida shakllanib, yetuk inson bo'lib kamol topishi hamdahayotda o'z o'rnini topib ketishida uning jamoaviy munosabatlarga qanday kirishuvi, jamoada qanday psixologik iqlim hukm surganligi, o'z o'rtoqlari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarning qanday tarzda kechganligi muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, guruhda doimo shunday bolalar topiladiki, ular paydo bo'luvchi ko'pgina muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, liderlik ko'p jihatdan shaxs tug'ma qobiliyalarining yetarli darajada shakllanganligi bilan ham xarakterlanadi. Shu sababli ham o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bolalardan iborat ekanligini unutmasligi, har bir o'quvchi shaxsini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O'quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo'lsa-da yo'qolishi og'ir oqibat- larni vujudga keltiradi. Demak, har bir o'quvchida liderlik sifatlarini shakllantirish o'qituvchidan har bir bolaga nisbatan individual yondashishni talab qiladi.

Jumladan, har bir bolaning ichki imkoniyatlariga qarab topshiriq va vazifalarni taqsimlash, o'z navbatida, ularga ishonch bildirish, rag'batlantirish, faolligini oshirish va tashabbuskorlik, tashkilot- chiliklarini yanada kuchaytirish orqali liderlik sifatlarini shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi



Lider, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi. Muayyan shaxsning lider darajasida tan olinishi unga ruhan yaqinlikni, uning ish bilan bog'liq qator fazilatlarini yuqori baholashni, ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e'tibori kuchliligini anglatadi. Lider – guruhning hamma a'zolari tomonidan tan olingan shaxs lider. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati guruh manfaatini har narsadan ustun qo'yish, guruh oldiga qo'yilgan vazifani hal etishga sidqidildan kirishib, bu jarayonga jamoani safarbar eta bilishidir. Mehnat jamoasidagi yetakchi, avvalambor, ishchanligi va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadi.

Rahbarlik – lavozim lider guruh tomonidan saylangan shaxs. Agar rahbar va lider o'rtasidagi farqqa e'tibor beradigan bo'lsak, rahbar xodimlarga ega, liderning esa hamfikir tarafdorlari mavjud. Rahbar tayinlanib, boshqaruvda hokimiyatga suyansa, lider jamoa a'zolari orasidan saylanib, jamoaga tayanadi. Barcha ta'lim tizimida yoshlarning ijodiy iste'dodlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. O'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarning tashabbuslari, innovatsion g'oya va fikrlarini, iste'dod va iqtidorini o'z vaqtida ko'ra olishi va uni ro'yobga chiqarish uchun ko'makdosh bo'lish.

Yoshlarda yetakchilik ko'nikmalari va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma'naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo'naltirish talab etiladi.

Tahlil va natijalar

Liderlik va rahbarlik. Mehnat jamoasidagi har bir xodim guruhda o'zining mavqeiga ega. Bu rasmiy yoki norasmiy tarzda qo'lga kiritilgan bo'lishi mumkin. Rasmiy mavqe xodimning mansab pog'onasidagi o'rni va uning lavozimidan kelib chiquvchi vakolatlari bilan ifodalanadi. Har qanday xodim o'z hamkasabalari bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekan, turli omillar ta'sirida bu munosabatlar hissiy rang ola boshlaydi. Hissiyotga asoslangan munosabatlar ikki ko'rinishda - yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya) sifatida shakllanadi. Shunday xodimlar ham borki, ular o'zining ma'lum hislatlari bilan jamoaning ko'pchilik a'zolarida simpatiya uyg'ota oladilar va ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqeni egallaydilar. Psixologik talqin bo'yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo'lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa - liderdir. Mehnat jamoasidagi lider avvalambor o'zining ishchanlik xususiyatlari bilan farqlanib turadi, chunki, u aynan mehnat faoliyati tufayli boshqalardan ajralib ko'zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari, lider, guruh manfaatini himoya etar ekan, kezi kelganda rasmiy munosabatlar tizimiga va rasmiy doiralar manfaatiga ham zid chiqa oladi. Natijada, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi mumkin.

O'sib borayotgan avlodning tashkilotchilik faoliyati muammosi psixologiya - pedagogika fani tomonidan XX asrning 20-30-yillardayoq faol hal qilib borilgan. Mazkur muammo bolalarning o'z - o'zini boshqarishini qurish yo'llarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan. Liderga xos bo'lgan fazilatlar orasida odatda o'tkir zehn, kuchli iroda va maqsadga intiluvchanlik, jo'shqin energiya, o'ziga xos tashkilotchilik qobiliyati va ayniqsa, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorlik, kompetentlik, odamlarda ishonchni uyg'otish qobiliyati va boshqalar ko'rsatiladi.

Psixologik talqin bo'yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo'lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa lider. Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga borliq bo'lgan qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e'tiborliligini anglatadi. Lider - guruhning aksariyat a'zolari tomonidan tan olingan shaxs. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati - guruh manfaatini har narsadan ustun qo'yish, doimo guruh oldiga qo'yilgan vazifani yechishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir.

Xulosa va takliflar

Zamonaviy jamiyatda o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Jamiyatdagi o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar va texnologik rivojlanish davrida o'smirlar jamiyatning faol a'zolari sifatida o'z rolini topishlari va shakllantirishlari kerak. Buning uchun ijtimoiy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim berish, o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Yoshlarda liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishda ularning madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir fuqaro shaxsini inson sifatida hurmat qilish unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, ishga ijodiy yondashish talab qilinadi.

Dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlarning o'ziga yarasha pedagogik ahamiyati mavjud. Biz sinfda yetakchi o'quvchilarni shakllantirishimiz uchun ko'proq jamoa bo'lib ishlashga, jamoada bir-birini fikrini hurmat qilishga va o'z fikriga qat'iy turishga o'rgatadigan pedagogik ahamiyatga ega metodlardan foydalanishimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1
2. G'oziyev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi".-T.: Noshir. 2010
3. Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari.- T.: O'qituvchi, 1996. – B. 187.
4. Маркова А. К. Психология труда учителя. М.: Просвещение, 1993.Талаба192 с.
5. Котова И. Б., Шинное Е. Н. Педагог: профессия и личност. РостовДону, 1997.
6. Shamshetova A. K. Umumiy psixologiya // o'quv –uslubiy majmua. O'zDJTU – 2018. 320 bet.
7. Ibraimov, X., Azimova, Z., & Otaboeva, Z. (2023). Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community. *Science and innovation*, 2(B12), 108-113.
8. Sadiddinov S.R. Turayeva D.R. Psixokonsultatsiya va psixokorreksiya (o'quv qo'llanma). O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 25 noyabrdagi 388-sonli buyurug'iga asosan.
9. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.
10. Zufarova "Umumiy psixologiya" Toshkent 2005.
11. Sobirov, Y. (2023). O'SMIRLARDA XAVOTIRLANISH HISSI PAYDO BO'LISHINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. Евразийский журнал академических исследований, 3(4 Special Issue), 142-146.
12. Sobirov, Y. E. O. G. L. (2022). O'SMIRLARDA XAVOTIRLANISH HISSI NAMOYON BO'LISHINING DINIY-PSIXOLOGIK OMILLARI. Academic research in educational sciences, (Conference), 219-b.